

BOLA HUQUQLARINI XALQARO HUQUQIY HIMOYA QILISH

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti 1-kurs B patok 1-guruh talabasi
Bozorova Elmira yozgan ilmiy-ommabop maqolasi*

Annotatsiya. Mazkur maqola doirasida muallif Bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilishning ahamiyati, bola huquqlarini himoya qilishga doir qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlar tavsifi va ushbu huquqni taminlashni amalga oshiradigan xalqaro tashkilot va organlarning ahamiyatini yoritib bergan. Shuningdek maqolada bola huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda O'zbekiston siyosati va milliy qonunchiligini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: konvensiya, qo'shimcha protokol, takomillashgan, deklaratsiya, xalqaro mexanizm, milliy ma'ruza.

МУЖДУНАРОДНО- ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА ПРАВ ДЕТЕЙ

Аннотация. В рамках статьи автор подчеркнул важность международно-правовой защиты прав детей, характеристику принятых международно-правовых документов по защите прав детей, а также значение международных организаций и органов, реализующих это право, и национального законодательства. Анализировался на основе статистических данных.

Ключевые слова: соглашение, дополнительный протокол, улучшен, декларация, международный механизм, национальная экспозиция.

INTERNATIONAL PROTECTION OF CHILDREN'S RIGHTS

Annotation. Within the scope of the article, the author highlighted the importance of international legal protection of children's rights, the description of international legal documents adopted on the protection of children's rights, and the importance of international organizations and bodies that implement this right and national legislation was analyzed based on statistical data.

Keywords: convention, additional protocol, improved, declaration, international mechanism, national exposure.

Bola huquqlarini himoya qilish bugungi kunda barcha mamlakatlar tomonidan taminlanishi va himoya qilinishi kerak bo'lgan asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Albatta, bola huquqlarini inson huquqlariga kiradi hamda uning takibiy qismidir. O'zbekiston respublikasi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risidagi qonun"

da va Bola huquqlari konvensiyasida “bola (bolalar) “ tushunchasiga ilk marotaba ta’rif berilgan bo’lib unda “bola (bolalar)”- o’n sakkiz yoshga to’lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo’lgan shaxslar “ ekanligi aytilgan. Bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish xalqaro darajada ustuvor vazifa etib qoyildi. Shu sababli bola huquqlarini himoya qiluvchi bir qancha xalqaro huquqiy normativ hujjatlar qabul qilingan. Jumladan 1924-yilda “Bola huquqlari to’g’risidagi Jeneva deklaratsiyasi “, 1959-yildagi “Bola huquqlari to’g’risidagi deklaratsiya “, 1989-yilda Bola huquqlari konvensiyasi va 2002-yilda ikkita: Qurolli mojarolarda ishtirok etuvchi bolalar to’g’risidagi Qo’shimcha protokol va Bolalar bilan savdo-sotiq qilish, bolalar fohishabozligi va parnografiyasiga taaluqli Qo’shimcha protokol. Ushbu normativ hujjatlar bola huquqlarini maxsus tartibga solishga qaratilgan deklaratsiya va konvensiyalardir. Ayniqsa Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiya bola huquqlarini himoya qiluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Konvensiya 3 qism 54 moddani o’z ichiga olgan bo’lib, ularni 4 ta kategoryaga bo’lish mumkin;

- a) Yashay olish huquqi
- b) rivojlana olish huquqi
- c) bolalar zo’ravonlik va eksplutatsiya qilinishidan himoyalangan bo’lishlari shart.
- d) ishtirok etish huquqi¹

Ushbu konvensiyaga a’zo davlatlar zimmasiga bola huquqlarini taminlash, himoyalash va kafolatlash borasida bir qancha majburiyatlarni belgilangan. Masalan 24-moddasida:

Ishtirokchi-davlatlar bolaning sog’liqni saqlash tizimining takomillashgan xizmatlaridan, kasalliklarni davolash va salomatlikni tiklash vositalaridan foydalanishini huquqiy e’tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar birorta ham bola sog’liqni saqlash tizimining bunday xizmatlaridan bahramand bo’lishdan iborat o’z huquqidan mahrum bo’lib qolmasligini ta’minlashga harakat qiladilar.

Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqning to’la amalga oshishiga erishadilar, jumladan, quyidagi choralarni ko’radilar:

chaqaloqlar va bolalar o’limi darajasini pasaytirish;

hamma bolalarga zarur tibbiy yordam ko’rsatilishi va ularning sog’lig’ini saqlashga, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirishga birinchi darajali e’tibor berilishiga erishish;

boshqa usullar qatorida qulay texnologiyani qo’llash va yetarli miqdorda to’yimli oziq-ovqat va toza ichimlik suv yetkazib berish yo’li bilan hamda atrof-muhitning ifloslanish xavf-xatarini e’tiborga olgan holda birlamchi tibbiy -sanitariya

¹A.R.Tillaboyev. “Bola huquqlari”. Darslik. -Toshkent: Adolat, -2014. B.73

yordami ko'rsatish doirasida kasalliklar va to'yib ovqatlanmaslikka qarshi kurash olib borish;

onalarga tug'ish oldidan va tuqqandan keyingi davrda ularning sog'ligini saqlash sohasida tegishli ravishda xizmatlarni taqdim etish;

jamiyat barcha tabaqalarining, jumladan, ota-onalar va bolalarning go'daklar sog'lig'i va ovqatlanishi, ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari, gigiyena, bola yashayotgan muhit sanitariyasi va baxtsiz hodisalarning oldini olish haqidagi xabardorligini ta'minlash, shuningdek, ularning ilm olishiga yo'l ochish va egallagan bilimlaridan foydalanishlarini qo'llabquvvatlash;

profilaktik tibbiy yordam va oila hajmini rejalashtirish sohasidagi ma'rifiy ishlar va xizmatlarni rivojlantirish.

Ishtirokchi-davlatlar bolalarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan an'anaviy amaliyotga barham berish maqsadida har qanday samarali va zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.²

Ushbu konvensiya ijodkorlarining g'oyalari tufayli bolalar jamiyatning to'la huquqli a'zosi deb e'tirof etilgan. U bolalar jismoniy va aqliy erkin rivojlangan holda kamol topishi uchun boshqa narsalardan tashqari sog'ligi va atrof muhitning xavfsizligi, tibbiy yordamga ega bo'lish va ovqatlanish, kiyim-kechak, turar-joy xususidagi normalar bilan taminlanishi lozimligini talab etadi. Bundan tashqari konvensiya bola o'z fikrini erkin ifodalash huquqi, vijdon va din erkinligi, assotsiatsiya va tinch yig'ilishlar erkinligi huquqi shuningdek shaxsiy hayot, oilaviy, uy-joy dahlsizligi va pochta orqali yuboriladigan narsalarning maxfiyligiga bo'lgan huquqlari mavjudligini va ushbu huquqlarni amalga oshirishga qonunga zid tarzda aralashish yoki poymol etish mumkin emasligini belgilagan. Konvensiya ikkita muhim konsepsiyani ilgari surgan :

Birinchi konsepsiya – “bola manfaatlarini yaxshiroq taminlash” (3- modda) bolalarga nisbatan barcha omil majburiy hisoblanadi.

Ikkinchi konsepsiya- ota – ona yoxud bola uchun masul bo'lgan barcha shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirib, bolaga nisbatan boshqaruv va rahbarlik qilish chog'ida uning rivojlanib borayotgan qobiliyatlariga mos ish tutishlari darkor³

Hozirgi kunda mazkur konvensiyaga Somali va Aqshdan tashqari 191 ta mamlakat a'zo bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi 1992-yilda ushbu konvensiyani qabul qilgan bo'lib, shu kunga qadar besh marotaba o'zining milliy maruzasini hamda fakultativ protokollar yuzasidan ikkita hisobotini taqdim etgan.

Bola huquqlarini himoya qilishga doir ko'plab deklaratsiya, konvensiya va xalqaro bitimlar qabul qilingan bo'lib, ularda bolalarning huquq va erkinliklarini taminlash bo'yicha qoida va me'yorlar mustahkamlangan. Ana shu normalarni

² Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>

³ Bola huquqlari .Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik//Prof.G'.Abdumajidov tahriri ostida , -T:TDYUul,2009. -B79

bajarilishini qo'llab – quvvatlaydigan, kuzatib boradigan va davlatlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan xalqaro mexanizm zarurdir. Ushbu mexanizmni amalga oshirilishini taminlaydigan, bola huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar va organlar mavjud. Bola huquqlarini himmoya qilishda xalqaro tashkilot sifatida BMT ning faoliyati beqiyos. BMT tizimida bola huquqlarini bilan shug'ullanuvchi organlar shakllantirilgan. Ularga Bosh Assambleya, EKOSOS, YUNISEF va Bola huquqlari qo'mitasini misol keltirishimiz mumkin.

2002-yilning 8-10 may kunlari Bosh Assambleyaning bolalarga bag'ishlangan Maxsus sessiyasi o'tkazilib unda bolalarning dolzarb muammolari muhokama qilindi. Mazkur sessiyada 7000dan ortiq ishtirokchi ishtirok etdi⁴.

YUNISEF- bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan BMT ning maxsus organi hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bolalarning oziq-ovqat, dori-darmon va kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida 1946- yil 11-dekabrda BMTning birichi rezolyutsiyasida tashkil qilindi. YUNISEF (United Nations International Children's Emergency Fund-UNICEF)- Bolalarga yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro favqulodda jamg'armasi 1965- yilda bolalar hayotini saqlashdagi yordami uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. YUNISEF bola huquqlarini rag'bantlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi Bola huquqlari qo'mitasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, Bola huquqlari konvensiyasi ratifikatsiya qilgan yoki hujjatga qo'shilgan davlatlarga zimmalaridagi vazifalarni bajarishda yordam ko'rsatib kelmoqda.

Bola huquqlarini himoya qiluvchi universal xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham mavjud. Bunday tashkilotlarga misol qilib Yevropa Kengashini aytishimiz mumkin, mazkur tashkilot 1949-yilda 10 mamlakatdan kelgan tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan. Bugungi kunda ushbu tashkilot inson huquqlarini himoya etish borasida nufuzli tuzilmadir.

Bola huquqlarini taminlashda milliy qonunchilligimizga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Bola huquqlarini huquqiy tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan boshlanadi desak ham bo'ladi. Chunki mammalkatimizning asosiy qonuni sifatida barcha sohalarining shu jumladan bola huquqlari bo'yicha ham huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 78-moddasida "Bolaning huquqlari ,erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taminlash hamda himoya qilish , uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoit yaratish davlatning majburiyatidir⁵." Ushbu normada davlatimiz tomonidan bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni hamda ularni barcha shart-sharoit asosida voyaga yetishini taminlashni o'z zimmasiga olganligini va buni asosiy qonunda mustahkamlab qoinganini ko'rishimiz mumkin.

⁴ World leaders "Say Yes " for children. <http://www.unicef.org/specialsession/>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". Toshkent-2023.-B.30

Mamlakatimizda ham bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini taminlashda bir qancha milliy normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan va ushbu qonunchilikni rivojlanishini biz uch bosqichga bo'lingan holda o'rganishimiz mumkin:

birinchi bosqich-1991-2000- yillar

ikkinchi bosqich – 2000-2008- yillar

uchinchi bosqich- 2008- yildan bugungi kunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda bola huquqlarini himoya qilishga doir milliy qonunchilik to'la shakllanishi bilan tavsiflansa, ikkinchi bosqich – ushbu qonunchilikni rivojlanishi bilan bir qatorda kafolatlashga qaratilgan qonunlar qabul qilindi, uchinchi bosqichda milliy qonunchiligni yanada chuqurlashtirish va takomillashtirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida “ Qonun milliy qonunchiligimizda bola huquqlari sohasida ilk maxsus qonun bo'ldi. Ushbu qonun 4 bob 32 moddadan iborat bo'lib “Bola huquqlari konvensiyasi” ni milliy qonunchilikka to'liq implementatsiyasi hisoblanadi. Qonunning maqsadiga to'htaladigan bo'lsak, uning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasida munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Qonunning 3- moddasida , bolaning qonuniy vakili ,vasiylik va homiylik , yetim bola , jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bolalar, nogiron bola, ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar, ota- ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola tushunchasi o'z aksini topgan⁶. Ushbu qonun doirasida yurtimizda bola huquqlarini kafolatlashda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bolalarga oid davlat siyosati bola huquqlariga oid normativ- huquqiy hujjatlar qabul qilishi bilan birgalikda , bola huquqlarini taminlash uchun zarur bo'lgan shart- sharoitlarni yaratish bo'yicha davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini tartibga solishni o'z ichiga qamrab oladi. Yurtimizda bolaning irqi, jinsi , maqomi , ota- onasi, e'tiqodi , qarashlari tufayli kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralar ko'rilmoqda. Ushbu vazifani bajarishda hokimiyatning barcha organlari birdek harakat qilmoqdalar. Bola huquqlarini taminlashda davlat organlarining faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilangan:

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taminlash hamda himoya qilish oid davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va oshkoraligini taminlash

Bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat olib borishda tayyorlash, ular uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilish

Bola huquqlarini taminlash maqsadida davlat organlari va NNT o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish.

Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.⁷

⁶“ Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi “ Qonun.

⁷ A.R.Tillaboyev.“Bola huquqlari”.Darslik.-Toshkent:Adolat,-2014.B.205

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda aholining ko'pchilik qismini yoshlar tashkil qiladi shuning uchun yosh avlodning huquq va erkinliklarini taminlash va himoya qilish, ularning kelajakda yetuk shaxslar sifatida shakllangan holda voyaga yetishishlari uchun barcha shart - sharoitlarni taminlash , bizning fuqarolik jamiyatini qurishga asoslangan chinakam demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi bajarishimiz muhim bo'lgan vazifalarimizdan biridir.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek "Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz- mamlakatimizning buyuk kelajagi ham , ertangi kunimiz , erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatida qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha- barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz ham qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"⁸ .

REFERENCES:

1. .A.R.Tillaboyev."Bola huquqlari".Darslik.-Toshkent:Adolat,-2014.B.73-205
2. ¹ Bola huquqlari to'g'risida konvensiya.<https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>
3. Bola huquqlari./Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik//Prof.G'Abdumajidov tahriri ostida .-T.:TDYUul,2009-B.79
4. World leaders "Say Yes " for children.<http://www.unicef.org/specialsession/>
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi."O'zbekiston" .Toshkent-2023.- B.30
6. Karimov.I.Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz.T.9-O'zbekiston,2001.- B.187

⁸ Karimov I. Vatan ravnaqi uchun bir har birimiz ma'sulmiz.T.9.-O'zbekiston,2001.- B.187